

CHO'PON OBRAZI GENEZISI

ГЕНЕЗИС ОБРАЗА ПАСТУХА

THE GENESIS OF THE SHEPHERD'S IMAGE

Mamadiyeva Iroda G'ulom qizi

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ORCID: 0009-0009-4656-0402

mag_1samdu.uz56@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15302781>

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada cho'pon obrazi genezisi, uning turli madaniyat va adabiyotlarda qanday shakllangani o'rganiladi. Cho'pon obrazi xalq og'zaki ijodida, mifologiyada va adabiy asarlarda qanday talqin etilgani tahlil qilinadi. Ushbu obraz o'zbek adabiyoti va madaniyatida alohida o'rin egallab, ozodlik, donishmandlik va tabiat bilan uyg'unlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Adabiy asarlarda cho'pon ko'pincha xalq donishmandligi, mehnatsevarlik va fidoyilik timsoli sifatida tasvirlanadi. Tadqiqotda tarixiy, badiiy va falsafiy jihatlar yoritilib, cho'pon timsolining genezisi o'rganiladi. Ayniqsa, Sharq va G'arb adabiyotlaridagi cho'pon obrazi qiyosiy tahlil qilinib, ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib beriladi. Cho'pon faqatgina qo'y boquvchi emas, balki inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik, axloqiy ideallar va ijtimoiy munosabatlarning ramziy ifodasi ekanligi qayd etiladi.

ABSTRACT. This article explores the genesis of the shepherd's image and its formation in various cultures and literatures. It analyzes how this image has been interpreted in folk oral traditions, mythology, and literary works. In Uzbek literature and culture, the shepherd holds a special place as a symbol of freedom, wisdom, and harmony with nature. In literary works, the shepherd is often depicted as a representation of folk wisdom, diligence, and devotion. The study highlights historical, artistic, and philosophical aspects of the shepherd's image formation. Special attention is given to the comparative analysis of the shepherd's image in Eastern and Western literature, revealing its unique characteristics. It is noted that the shepherd is not just a person tending sheep but also a symbolic representation of the connection between humans and nature, moral ideals, and social relationships.

АННОТАЦИЯ. В данной статье изучается генезис образа пастуха, его формирование в различных культурах и литературе. Анализируется, как этот образ интерпретировался в народном устном творчестве, мифологии и литературных произведениях. В узбекской литературе и культуре пастух занимает особое место, являясь символом свободы, мудрости и гармонии с природой. В литературных произведениях пастух часто изображается как воплощение народной мудрости, трудолюбия и преданности. Исследование освещает исторические, художественные и философские аспекты формирования данного образа. Особое внимание уделяется сравнительному анализу образа пастуха в восточной и западной литературе, выявляются его уникальные черты. Отмечается, что пастух – это не только человек, пасущий овец, но и символ связи между человеком и природой, нравственных идеалов и социальных отношений.

Kalit soʻzlar: genezis, ramz, obraz, folklor, otaliq, evfemizm, irgʻay, zarang, chorvador, doston.

Key words: genesis, symbol, image, folklore, guardian, euphemism, caragana, maple, herdsman, epic.

Ключевые слова: генезис, символ, образ, фольклор, опекун, эвфемизм, караган, клён, скотовод, эпос.

KIRISH

Obraz — bu adabiyot, sanʼat va boshqa ijodiy yoʻnalishlarda inson yoki voqelikning badiiy gavdalanirilgan shakli. U real hayotga asoslangan boʻlishi yoki mutlaqo fantastik, ramziy tus olishi ham mumkin. Adabiy obraz – bu asardagi qahramon, uning xatti-harakati, ichki dunyosi va fikrlari orqali muallif gʻoyasini ifodalovchi timsol. Obraz individuallashtirilgan boʻlishi bilan birga, muayyan ijtimoiy qatlam, millat yoki davr vakili sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Obraz – bu oddiy personaj yoki tasvir emas, balki ijodkor tomonidan hayotiylik, ramziy maʼno va estetik goʻzallik bilan boyitilgan badiiy hodisadir. “Obraz sanʼat va adabiyotning obrazlar vositasida voqelikni aks ettirish haqidagi asosiy tushunchasidir. Adabiyot va sanʼat voqelikni obrazlar vositasida aks ettirar ekan, har bir asarda tasvirlangan narsa, predmet yoki ishtirok etuvchi shaxslar keng maʼnoda obraz deyiladi.”[1]

Choʻpon obrazi xalq ogʻzaki ijodi, adabiyot va tarixiy asarlarda keng uchraydi. U faqat chorvador emas, balki donishmand, tabiat bilan uygʻun yashovchi va baʼzan xalq himoyachisi sifatida tasvirlanadi. Choʻpon – chorvachilik bilan shugʻullanadigan, tabiat qoʻynida yashovchi va mol-holni boqib, boqimiga masʼul shaxsdir. U koʻpincha oʻz hayoti davomida tabiat qonunlarini chuqur anglaydi, yulduzlar boʻyicha yoʻl topadi va jonivorlar tabiatini yaxshi tushunadi. Xalq tasavvurida choʻpon – mehnatkash, halol va oqilona hayot kechiruvchi inson sifatida gavdalanadi. Baʼzan u dostonlarda yoki ertaklarda qahramon darajasiga koʻtariladi. Tarixdan maʼlumki, Markaziy Osiyodagi koʻplab xalqlar chorvachilik bilan shugʻullangan. Xususan, oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, turkman va boshqa turkiy xalqlarning hayotida chorvachilik muhim oʻrin egallagan.

Tarixiy jihatdan choʻpon obrazi koʻchmanchi chorvador xalqlarning turmush tarzi bilan chambarchas bogʻliq. Oʻrta Osiyo, Shimoliy Afrika, Kavkaz, va Yaqin Sharq xalqlari asrlar davomida chorvachilik bilan shugʻullangan. Tarixda koʻpchilik choʻponlar oʻzining koʻp yillik tajribasi tufayli dono va hayotiy bilimlarga ega insonlar sifatida qabul qilingan. Masalan, xalq ogʻzaki ijodida choʻponlar koʻpincha aqlli maslahat beruvchi, kelajakni oldindan koʻra oluvchi yoki boshqalarga oʻz donoligi bilan yordam beruvchi obrazda gavdalanadi. Oʻzbek xalq dostonlari, ertaklari va rivoyatlarida choʻpon obrazi koʻp uchraydi. Masalan, Alisher Navoiyning asarlarida ham choʻpon obrazini donishmand, oqil inson sifatida uchratish mumkin. Bundan tashqari, Sharq adabiyotida ham koʻplab choʻpon qahramonlari bor. Masalan, arab xalq ertaklari yoki turkiy dostonlarda choʻponlar shunchaki oddiy mehnatkash emas, balki bilimdon va hatto paygʻambarona xislatlarga ega insonlar sifatida tasvirlanadi. Islom tarixida choʻpon obrazi paygʻambarlar hayoti bilan bogʻliq. Masalan, Islom dini asoschisi Muhammad (s.a.v.) yoshlik chogʻida choʻponlik qilgan. Shu sababli, sufiylikda ham choʻpon obrazi botiniy maʼno kasb etadi. Ularning hayoti ramziy maʼnoda insonning ruhiy sayohatini ifodalaydi. Choʻpon obrazi tarixiy jihatdan koʻchmanchi chorvador jamiyatlarning muhim

qismi bo'lib, u faqat oddiy chorvador emas, balki donishmand, tabiat va hayvonlar tilini tushunuvchi inson sifatida shakllangan. Adabiyot va folklorda esa bu obraz hayotiy tajribasi bilan o'z atrofida qilarga yo'l ko'rsatuvchi ramziy qahramon sifatida gavdalanadi.

Cho'ponlik eng qadimiy mashg'ulot bo'lib, hayvonlar ilk bor qo'lga o'rgatilgan davrga borib taqaladi. Cho'pon aslida uy hayvonlarini yovvoyi hayvon (yirtqich)lardan yoki o'g'rilardan himoya qiluvchi (shabbon), boquvchi, qorovul shaxs bo'lgan. Dastlab shaxsiy mol (o'ziniki), keyinchalik chakana mol (o'zgalarniki), so'nggi davrlarda ferma(davlatniki) molini boquvchilar ham cho'pon deyilgan. Mol boqtiruvchilar, ya'ni xo'jayinlar cho'pon nutqida og'aliq, otalik (og'aliq yoki otaliq qiluvchi, g'amxo'r ma'nosida) deb atalgan. Og'aliq (otaliq) qiluvchilar cho'ponga beriladigan pul (mol, haq) so'zlari o'rnida enchi, sovun so'zlarini qo'llaydilar.

Ma'lumki, har bir og'aliq(otaliq)ning o'z mollariga soladigan en (tamg'a)lari bo'ladi. Ferma mollarining esa qulog'i sirg'alangan bo'ladi (shaxsiy mollardan ajralib turishi uchun). Bunda davlat moli tushunchasi sirg'alangan evfemasi bilan ifodalangan. Masalan, Iymonsiz kattalaruchta molingizni sirg'alabdi (Sh.Xolmirzayev) gapi uchta qo'yingizni davlatga olib beribdi; Otlar sag'risiga muhr bosildi (T.Murod) gapi asl otlar urushga jo'natildi tushunchalarini evfemik ifodasidir.

Chorvachilik jamiyat hayotida, taraqqiyotida asosiy omil, hattoki odamni qurbonlik qilishdan, insoniyatni odamxo'rlikdan qutqargan vosita bo'lganligi bois, cho'ponlik barcha iqtisodiy formatsiyalarda muqaddas professional kasb darajasiga ko'tarilgan. Shu sababdan cho'pon tanlangan, saralangan. Cho'ponga tayoq topshirish, tayoq ushlatish marosimlari o'tkazilgan.

Bunda Cho'ponlar piri Zangi otalarga bag'ishlab "qon" ham chiqarilgan. Shu bilan bog'liq tayoq ushlamoq, tayoq tutmoq, tayoq olmoq, tayoq topshirmoq, tayoq bermoq (cho'pon bo'lmoq o'rnida) evfemalari qo'llanilgan: Shu yil tayoq ushlaganimga yigirma besh yil bo'ladi.

Tayoq topshirish yoki tayoq tuttirish udumiga ko'ra cho'pon bo'lmishning otasi, ustoz, ovul oqsoqoli cho'ponga: Tayog'ing qutlug' bo'lsin, sutli bo'sin, baxt-u barakat, omad keltirsin (cho'ponning tayog'I, kelinning oyog'I shu ma'noda qo'llanilgan), boshing toshdan bo'lsin kabi evfemik duoi olqishlar orqali oq fotiha berganlar. Bu jarayon xalq og'zaki ijodiga ham ko'chgan:

Irg'aydan kesdim tayoq,
Yo'ling to'g'ri bo'lsin deb,
Zarangdan yo'ndim tayoq,

Boshing toshdan bo'lsin deb (xalq og'zaki ijodidan). Bu evfemik matnda irg'ay (eng to'g'ri va butoqsiz daraxt) to'g'ri yo'l – poklik yo'liga; zarang (eng qattiq daraxt) uzoq yashashlikka nisbat berilgan.

Bir umr tayoq ushlagan, sarkasevar nomini olgan, 95 yoshida vafot qilgan boysunlik G'o'chchi Xoliq o'g'lidan yozib olingan:

Mollarimning sarkasi,
Suruvimning erkasi,
Bo'ynida bor qo'ng'iroq,
Ham osilgan ko'zmunchoq,
Oq-qoralar dorimas,
Dorisa, omon qolmas,

Olabo'ynoq yonimda,
Dudamam bor qinimda,
Yelkamdadir qo'shog'iz,

Emasman sira yolg'iz matni cho'pon nutqi evfemikasi, uning psixologiyasiga doir ma'lumot beruvchi etnografik manbadir. Bunda sarkaning suruvdagi mavqe – ko'z tegmaslik; erka tushunchasi – ko'zmunchog'i bor; bo'ri, ayiq kelolmaslik tushunchasi – oq-qoralar dorimas; it tushunchasi – olabo'ynoq; pichoq, xanjar tushunchasi – dudama; miltiq nomi – qo'shog'iz; itim, pichog'im, miltig'im bor tushunchasi – yolg'iz emasman vositalari orqali evfemalashgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abu Hasan an-Nadviyning “Payg'ambarlar tarixi” asarida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning yoshligida mol boqishlari haqida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Bu holat Islom tarixidagi boshqa manbalarda ham uchraydi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bolalik va yoshlik yillarida Makka atrofida qo'y va mol boqish bilan shug'ullanganlar. Amakisi Abu Tolib qaramog'iga o'tgan odamlarning qo'ylarini ma'lum haq evaziga boqqan. Bu ish asosan Arabistondagi qabilalar orasida keng tarqalgan bo'lib, hayvonlar orasida eng yuvoshi bo'lgan qo'yni boqish hamma payg'ambarlar qilgan ish. Ular orasida ham chorvachilik bilan shug'ullanganlar ko'p bo'lgan, chunki bu ish ularni ma'lum ma'noda o'z ummatlariga rahbarlik qilishdek mas'uliyatli ishga tayyorlar edi. Hadislarda kelishicha, Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: “Alloh hech bir payg'ambarni jo'natmagan, magar u qo'y boqmagan bo'lsa. Sahobalar: “Siz hammi, yo Rasululloh?” – deb so'rashdi. Payg'ambarimiz (s.a.v.): “Ha, men ham Makka aholisi uchun mol boqardim”, – dedilar” (Buxoriy rivoyati). [2]

Payg'ambarlarimizga cho'ponlik qilish vazivasi yuklatilishining bir necha sabablari bo'lgan. Birinchidan, chorva mollarini boqish insonni sabr-toqatli, mehnatsevar va mustaqil bo'lishga o'rgatadi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) yoshligidanoq mehnat qilishga odatlanganlar. Ikkinchidan, tabiatda uzoq vaqt qolish, yolg'izlikda tafakkur qilish ularga Allohning qudrati haqida chuqurroq o'ylash imkonini bergan. Uchinchidan, kelajakdagi risolatga tayyorgarlik – odamlarni boshqarish, ularga yetakchilik qilish uchun avval hayvonlarni boshqarish va parvarish qilish tajribasini o'tash ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan. Demak, Muhammad (s.a.v.) yoshlik chog'ida qo'y va mol boqish bilan shug'ullanganlari ishonchli manbalarda tasdiqlangan va bu ularning shakllanishida muhim bosqichlardan biri bo'lgan.

Cho'pon obrazining genezisi qadimiy mifologik tasavvurlardan boshlanib, xalq dostonlari va adabiyot orqali rivojlangan. O'zbek xalq eposlarida cho'pon tabiat bilan uyg'un yashovchi, o'z bilim va tajribasi bilan ajralib turuvchi shaxs sifatida tasvirlangan. “Go'ro'g'li”, “Alpomish” kabi dostonlarda cho'pon odatda dono, xalq dardini tushunadigan va qahramonlik ko'rsatadigan obraz sifatida gavdalanadi. Folklordagi cho'pon obrazi dono va topqir inson sifatida tasvirlanadi. U ko'pincha oddiy hayot kechirsa-da, aql-farosati bilan hukmdorlar va boylardan ustun keladi. “Cho'pon yigitcha” ertagida u xalq donishmandligini ifodalovchi qahramon sifatida gavdalanadi. “Zolim xon va cho'pon” ertagida esa u o'zining ayyorligi va haqiqatparvarligi bilan zolim hukmdorni yenga oladi. Ertakda bir cho'pon yigitning boy bilan bo'lgan munosabatlari tasvirlanadi.[3] Boy mol-mulkka egalik qilishi, ko'plab chorva boqishi va boylik bilan maqtanishi bilan ajralib turadi, cho'pon esa mehnatkash va halol inson sifatida namoyon bo'ladi. Cho'pon yigitning donoligi va saxiyligi uni omadga yetaklaydi. U o'z saxiyligi sababli sehrli nayga ega bo'lib, aynan shu nay uning hayotini o'zgartiradi. Ertak davomida

cho'pon yigit qiyinchiliklarga duch keladi, lekin mehnati, donoligi va sadoqati sababli oxir-oqibat g'olib bo'ladi. Ushbu ertakda cho'ponning boy bilan solishtirilishi muhim ramziy ma'noga ega. Boy kibrli, ochko'z va faqat o'z boyligini oshirishni o'ylovchi shaxs sifatida tasvirlanadi, cho'pon esa halol mehnati va saxiyligi tufayli ezgulik va haqiqatni ifodalovchi qahramon bo'lib gavdalanadi. Cho'pon obrazi xalq og'zaki ijodi, tarixiy jarayonlar va adabiy meros orqali shakllangan bo'lib, turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Dastlabki davrlarda cho'pon obraziga mifologik tus berilgan, u tabiat bilan uyg'un yashovchi, hayvonlar tili va tabiat sirlarini biluvchi dono inson sifatida ko'rsatilgan. O'zbek xalq ertaklari va dostonlarida esa cho'ponning mehnatkashligi, oddiyligi va halolligi oldinga chiqadi. Tarixiy manbalarda cho'ponlar jamiyatning eng quyi tabaqasiga mansub bo'lsa-da, ular ko'pincha oqil va adolatparvar insonlar sifatida tasvirlangan. "Cho'pon yigit bilan boy" ertagida ham cho'pon mehnat bilan baxt topuvchi, xalq vakili bo'lib namoyon bo'ladi. Bu ertakda cho'pon obrazining ijobiy talqini davom ettirilgan bo'lib, u boydan ustun qo'yiladi. Donishmand cho'pon – hayotiy tajribaga ega, tabiat bilan uyg'un yashovchi va xalq donishmandligi timsoli bo'lgan qahramon.

NATIJALAR

Cho'pon obrazi o'zbek adabiyotida xalq og'zaki ijodi, dostonlar va romanlardagi ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda shakllangan muhim badiiy timsollardan biridir. Bu obraz ko'pincha mehnatkash, sadoqatli va tabiat bilan uyg'un yashovchi inson sifatida tasvirlanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodining nodir namunalaridan biri bo'lgan "Kuntug'mish" dostonida ishtirok etgan cho'pon obrazi mehribonligi va saxiyligi bilan ulug'lanadi. Bosh obraz Kuntug'mishga eng qiyin vaziyatda yordam berib, asar qahramonlarini mushkul holatdan olib chiqib ketishga yordam beradi." Kuntug'mish:

So'rasang cho'ponku bo'yla holimni,
Uch kun bo'ldi boy berganman gulimni,
Quvalab ko'rolmadim karvon zolimni,
Bu yig'lagan sho'rlar mening ulimdir.

Alqissa, cho'pon:

-E, unday bo'lsa men ikkita tuqqan qo'yni ushlayin, birovini siz emizing, birovini men emizay, - dedi. Cho'pon qo'yni ushlab, poychasini gadoyni qo'lga berib, "emizing" dedi. Birovini cho'pon emizdi. Ikkovining qorni to'yib, yetimak qo'ziday uxlab qolishdi." [4]

Quyidagi misralar "Kuntug'mish" dostonida cho'pon tomonidan Kuntug'mishga berilgan muhim hayotiy maslahatlardir. U inson hayotining o'tkinchiligi va ehtiyotkorlik bilan harakat qilish lozimligini anglatadi.

Har banda boshidan g'am-shodlik o'tar,
To'rt kecha-kunduzda daryoga yetar.
Ullaringga ehtiyot bo'l, jon do'stim,
Qaytadan ko'rguncha endi, Olloh yor.[5]

"Har banda boshidan g'am-shodlik o'tar," misrasi bilan inson hayotining o'zgaruvchanligi tasvirlanmoqda. Har bir odam hayotida baxtli va qayg'uli kunlarni boshidan kechiradi. Bu tabiiy jarayon bo'lib, hech kim doimiy quvonch yoki doimiy g'am ichida yashamaydi. "To'rt kecha-kunduzda daryoga yetar." so'zlari bilan inson umrining qisqaligini va vaqtning tez o'tishini ifodalaydi. To'rt kun ichida daryoga yetish iborasi hayotning bir necha kun ichida o'tib ketishini, inson tez orada maqsadiga yetishini yoki hayotiy sinovlardan o'tishini bildiradi. "Ullaringga ehtiyot bo'l, jon do'stim," – Bu maslahat Kuntug'mishga

qaratilgan bo'lib, unga hayot yo'lida ehtiyotkor bo'lish, o'ylab harakat qilish kerakligini bildiradi. Chunki har qanday shodlik va g'am vaqtinchalik bo'lsa ham, inson o'zini yo'qotib qo'ymasligi kerak. "Qaytadan ko'rguncha endi, Olloh yor."– Cho'pon Kuntug'mishga xayrlashuv so'zlarini aytmoqda va unga Allohdan madad tilamoqda. Bu satr do'stlik, insoniy mehr-muhabbat va yo'l oldidan qilingan duoni ifodalaydi. Umuman olganda, bu nasihat Kuntug'mishga hayot yo'lida bardoshli, sabrli va ehtiyotkor bo'lish, vaqtning qadriga yetish va har qanday sharoitda ham irodali bo'lish muhimligini uqtiradi.

"Kuntug'mish" dostonidagi cho'pon obrazi tajribali, dono va hayotning past-balandini ko'rgan inson timsolidir. U bosh qahramon Kuntug'mishga hayotiy maslahat berib, uning yo'lga nur sochuvchi yo'l boshchi sifatida namoyon bo'ladi. Uning nasihatlarini hayot falsafasiga asoslangan bo'lib, insonning hayotda duch keladigan sinovlariga tayyor bo'lishini, vaqtning o'tkinchiligi va ehtiyotkorlikning zarurligini eslatadi. Cho'ponning nasihatlarini yosh qahramonga yo'l-yo'riq beruvchi va uning hayotiy tajribasini oshiruvchi muhim omil sifatida xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Cho'pon obrazi nafaqat "Kuntug'mish", balki boshqa xalq dostonlari, epos va afsonalarda ham uchraydi. Masalan, "Alpomish" dostonida ham xalq orasida tajribali insonlar bosh qahramonga maslahat berib, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Bu maslahatgo'y ko'pincha oddiy xalq vakili – cho'pon, donishmand keksalar yoki tajribali jangchilar bo'ladi. "Rustamxon", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarda ham cho'pon yoki keksa donishmandlar qahramonlarning hayot yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday obrazlar shunchaki ikkinchi darajali qahramonlar emas, balki asarning ma'naviy yo'nalishini belgilovchi muhim shaxslardir. Ular tajriba, donishmandlik, sabr va bilim manbai bo'lib, yosh avlodga kerakli maslahatlarni beradi. Cho'ponlar xalq hayotining mashaqqatlarini boshidan kechirgan, hayotiy tajribaga ega insonlar sifatida tasvirlanadi. Ular qahramonlarga nafaqat maslahat beradi, balki ularning jismoniy va ma'naviy kamoloti uchun yo'l ko'rsatadi. Xalq donishmandligi va an'alarini saqlovchi obraz – cho'ponlar dostonlarda xalqning og'zaki ijodini, urf-odatlarini va qadriyatlarini saqlovchi va yetkazuvchi shaxs sifatida ham maydonga chiqadi. Bu obraz yosh avlodni sabr, matonat, hayotiy to'siqlarga bardosh berish kabi xislatlarga o'rgatadi. Dostonlar orqali bunday qahramonlar yoshlarga ibrat sifatida ko'rsatiladi.

"Kuntug'mish" dostonidagi cho'pon obrazi xalq donishmandligi, tajriba va ehtiyotkorlik timsolidir. U bosh qahramonga hayot yo'lida yo'l-yo'riq ko'rsatib, unga kelajakda duch keladigan qiyinchiliklarga tayyor bo'lishni maslahat beradi. Bu obraz faqat "Kuntug'mish" dostonigagina xos bo'lmay, ko'plab xalq eposlarida uchrab, yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Cho'pon donishmandlikning, sabr-toqatning va hayotiy tajribaning timsoli sifatida milliy merosimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Cho'pon obrazi va chorvachilik masalasi qadimgi turkiy bitiktoshlarda, jumladan, "To'nyuquq" bitiktoshida ham uchraydi. Bu manbalarda chorvachilik nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki turkiy xalqlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va davlat boshqaruvidagi muhim omil sifatida aks etgan. Cho'ponlar ko'chmanchi turkiy xalqlar hayotida asosiy ijtimoiy qatlamlardan biri bo'lib, ular chorvadorlik bilan shug'ullangan. Bitiktoshlarda bu obraz turli shakllarda uchraydi. Cho'ponning o'z chorvasini qo'riqlashi, podani yirtqichlardan yoki dushmanlardan asrash jarayoni hukmdor va qo'shinlarning xalqni dushmanlardan himoya

qilishi bilan qiyoslanadi. Ko'chmanchilar uchun chorva asosiy bo'ylik bo'lib, yaxshi cho'ponning borligi xalqning iqtisodiy barqarorligini ta'minlagan.

“To'nyuquq” bitiktoshida chorvachilikning o'rni muhim ahamiyatga egadir. Bitiktoshda turkiy qabilalarning yashash tarzi, ularning ko'chmanchi hayoti va chorvadorlikning ahamiyati haqida ma'lumotlar bor. Masalan, turkiylarning o'z chorvalari bilan keng hududlarni kezishi, qish va yozgi makonlarini o'zgartirishi haqida ma'lumotlar uchraydi. Chorva bo'ylik va oziq-ovqat manbai bo'lgani uchun, To'nyuquq o'z yurishlarida bu jihatni inobatga olgan va xalqning farovonligini saqlashga intilgan. Turkiylarning harbiy yurishlarida chorva asosiy ozuqa manbai sifatida xizmat qilgan. Ko'chmanchi lashkarlar safarbar qilinganida chorva mollari ham o'zlari bilan olib ketilgan. Bitiktosh matnlari turkiy xalqlarning chorvachilik bilan bog'liq urf-odatlarini, iqtisodiy tizimi va kundalik hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Cho'pon va chorvachilik bilan bog'liq so'zlar, iboralar qadimgi turkiy tilni o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Bitiktoshlardagi yozuvlar chorvachilikning o'sha davr siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'rnini aniqlashga yordam beradi. Asarda To'nyuquq tomonidan aytilgan ushbu so'zlar yuqoridagi fikrlar tasdig'idir: “Qo'ng'ir qo'y, oq otni katta qildim. Bosib olishga urinadigan dushmani poymol qilar edim”. Ushbu misol shuni anglatadiki, davlat harbiy ishlarini nazorat qiladigan shaxs chorvachilikdan ham xabari bo'lishi zarur. To'nyuquq obrazi esa barcha ishlarda xonga yordamchi, juda tadbirli inson sifatida gavdalanadi.

Shunday qilib, “To'nyuquq” bitiktoshi va boshqa qadimgi turkiy yodgorliklarda cho'pon obrazi hamda chorvachilik faqat iqtisodiy faoliyat emas, balki davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va xalq farovonligining asosiy omili sifatida aks etgan. Bu jihatlar turkiy xalqlarning tarixini chuqurroq tushunish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

X-XII asrlarda yozilgan asarlarda, jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida chorvachilik va cho'ponlik ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida tasvirlangan. Ushbu davrda chorvadorlik Markaziy Osiyo xalqlari uchun asosiy xo'jalik tarmoqlaridan biri bo'lib, davlat va jamiyat tuzilishida ham o'z aksini topgan. Bu asar o'sha davr jamiyatining turli tabaqalariga tegishli bilim va donolikni o'z ichiga olgan axloqiy-didaktik doston bo'lib, unda chorvachilik va cho'ponlik hayoti ham eslab o'tiladi. “Qutadg'u bilig”da chorvadorlik xalqlarning asosiy tirikchilik manbai bo'lganligi haqida ishora qilinadi. O'sha davrda chorva mollari, ayniqsa, ot, qo'y, sigir va tuya hayot uchun muhim sanalgan. Cho'ponlar haqida ijtimoiy nuqtai nazar berib o'tilgan. Cho'ponlar jamiyatda oddiy mehnatkashlar qatorida sanalgan, lekin ularning mehnati qadrligi hisoblangan. Asarda toza mehnat va halollik targ'ib etilgan bo'lib, cho'ponlik ham bu qadriyatlarning bir qismi sifatida tilga olinadi. “Chorvador - hamma hayvonlarga sardor”.[6] Ushbu ibora orqali asarda chorvadorning o'z hayvonlar to'plamiga bo'lgan rahbarligi va mas'uliyati ta'kidlanadi. Ya'ni, chorvador – hamma hayvonlarga sardor, degani, u butun chorva zotini tartibga soluvchi, ularni parvarish qiluvchi va xavfsizligini ta'minlovchi asosiy shaxs ekanligini ifodalaydi. Chorvador hayvonlarning har biri uchun rahbar sifatida namuna bo'ladi. Ularning har biri bilan alohida aloqada bo'lib, ularni nazorat qiladi, o'rgatadi va ularning ehtiyojlarini qondiradi. Bu hayvonlarga bo'lgan munosabat, ularga mehribonlik va e'tibor, rahbarning ham o'z xalqiga bo'lgan munosabati va mas'uliyatini aks ettiradi. Ibora orqali shuningdek, rahbarlikda mas'uliyatning ahamiyati ko'rsatiladi. Chorvador barcha hayvonlar uchun sardor bo'lib, ularning xavfsizligi, sog'lig'i va yaxshi holatda bo'lishini ta'minlash uchun barcha

choralarni ko'radi. Shu tarzda, ideal rahbar o'z xalqiga g'amxo'rlik qilishi va ularning hayotini yaxshilashga intilishi lozimligi ta'kidlanadi. Asarda bu ibora orqali ijtimoiy tartib, birlik va axloqiy qadriyatlar ham aks etadi. Hayvonlarning tartibga solinishi, ularni boshqarish – bu haqiqiy rahbarlikning belgisidir. Bu nafaqat hayvonlar dunyosida, balki insonlar jamiyatida ham o'z aksini topishi kerak, ya'ni davlat rahbarlari o'z fuqarolariga nisbatan shu tarzda yondoshuvni amalga oshirishi zarurligi nazarda tutiladi. Shunday qilib, "Chorvador – hamma hayvonlarga sardor" iborasi nafaqat chorvadorning o'z faoliyatidagi o'rnini, balki ideal rahbarning insonlarga bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Bu yerda rahbarlik, mas'uliyat va parvarish tushunchalari uyg'unlashib, ijtimoiy tartibning, adolat va g'amxo'rlikning timsoli sifatida ko'rsatiladi. Asarda hukmdor va davlat boshqaruvchilari uchun maslahatlar berilgan bo'lib, unda mol-mulk va chorva to'g'ri boshqarilishi kerakligi ta'kidlanadi. Ya'ni, yaxshi podshoh xalqning hayotiy ehtiyojlarini, jumladan, chorvadorlikni ham rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim. Shunday qilib, "Qutadg'u bilig"da chorvachilik va cho'ponlik faqat iqtisodiy faoliyat emas, balki ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan soha sifatida ham tasvirlangan.

XULOSA

O'zbek romanchiligi va qissachiligida cho'pon obrazi turli davrlarda o'ziga xos talqin etilgan. Cho'pon – xalq hayotiga yaqin, tabiat bilan hamnafas inson sifatida tasvirlanadi. U ba'zan fidoyi mehnatkash, ba'zan esa jamiyatdagi muammolarni chuqur his qiluvchi donishmand shaxs sifatida gavdalanadi. Cho'pon obrazi ko'pincha inson va tabiat munosabatlarining timsoli sifatida ham namoyon bo'ladi. Pirmqul Qodirovning "Qora ko'zlar" asarida cho'pon obrazi jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq holda yoritiladi. Hulkar obrazi orqali mehnat taqsimotining noto'g'ri yo'lga qo'yilganligi fosh etiladi. U qishloq qizlari uchun odatiy bo'lmagan kasb – cho'ponlikni bajarishga majbur bo'ladi. Hulkarning toqqa chiqib, qo'y boqishi faqat oddiy hayotiy zarurat emas, balki jamiyatdagi tengsizlik, ijtimoiy adolatsizlik va taqdir zarbalari natijasi sifatida tasvirlanadi. Cho'pon obrazi va ijtimoiy muhit Roman qahramonlaridan Madaminjon, Ma'suda, Jannatoy, Cho'lponoy kabi kabi personajlar orqali 60-yillar o'zbek qishloqlari hayotidagi ijtimoiy adolatsizliklar keng yoritiladi. Ayniqsa, Ma'suda va Hulkar obrazlari orqali ayollar hayotidagi muammolar, ularning erkaklar jamiyatidagi mavqei ochib beriladi. Bu jihatdan cho'ponlik o'z ixtiyori bilan tanlanadigan oddiy kasb emas, balki qishloqdagi og'ir turmushning ramzi sifatida aks ettiriladi. Pirmqul Qodirov o'z romanida cho'pon obrazini faqat tarixiy yoki ramziy timsol sifatida emas, balki ijtimoiy muammolarni yoritish vositasi sifatida qo'llagan. Bu asar orqali cho'ponlik hayoti xalq dostonlaridagi idealizatsiyadan chiqib, real hayotdagi qiyinchiliklarni ko'rsatadigan badiiy uslubga o'tgan. Cho'pon obrazi endi faqatgina mehnatkashlik timsoli emas, balki jamiyatdagi adolatsizlik va inson taqdirining murakkabligini ifodalovchi badiiy vositaga aylangan. Hulkarning cho'pon bo'lishi uning shaxsiy tanlovi emas, balki jamiyat tomonidan yuklatilgan majburiyat ekanligi tasvirlangan. Bu tasvirlash usuli cho'pon obrazining genezisida yangi bosqich bo'lib, uni xalq dostonlari va mifologik talqinlardan farqli ravishda ijtimoiy muammolar bilan bog'laydi.[7]

Nurali Qobilning "Yashashga kechikma"[8] asarida cho'ponlar obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarda cho'ponlar shunchaki chorva boqadigan oddiy kishilar emas, balki hayotga, taqdirga, insoniy qadriyatlarga o'ziga xos falsafiy yondashuvga ega shaxslar sifatida tasvirlanadi. Ular tabiat bilan uyg'unlikda yashaydi, insoniylik va halollikni qadrlaydi.

Asardagi cho'ponlar hayotning murakkab sirlarini, inson taqdirini tushunishga intiluvchi obrazlar sifatida gavdalanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyotida cho'pon obrazi xalq hayoti va qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim badiiy timsollardan biridir. "Yashashga kechikma" asarida esa cho'ponlar hayotning donishmand kuzatuvchilari sifatida talqin qilinib, asarning asosiy g'oyalari ochib berishga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Zunnunov, N.Hotamov. "Adabiyot nazariyasidan qo'llanma"- Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1978. B.41.
2. "Payg'ambarlar tarixi" Abu Hasan an-Nadviy, Credo print Group nashriyoti Toshkent 2023
3. "O'zbek xalq ertaklari"
4. Kuntug'mish O'zbek xalq dostoni."Kamalak-PRESS" nashriyoti, 2019.121-122-123-betlar.
5. "Ona tili va adabiyot" "Sharq" nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent - 2014 yil.
6. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" . Toshkent 2007 133-bet.
7. Pirmqul Qodirov Qora ko'zlar O'zbekiston : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot 2009 120-134 b
8. Nurali Qobil "Bo'ri ovi", Qissalar. Toshkent, Ijod-press 2017, 64-70 b.